XALQ DEPUTATLARI SHAYXONTOXUR TUMANI KENGASHINING

Q A R O R I

2024-yil 27-dekabr III-5-031-14-205-K/24 Shayxontoxur tumani

2025-yil uchun Shayxontohur tumani mahalliy byudjetini tasdiqlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6-, 24-moddalari, Byudjet kodeksining 27-, 99-moddalari O‘zbekiston Respublikasining 2024-yil 24-dekabrdagi “2025-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to‘g‘risida” O‘RQ-1011-sonli Qonuni, Xalq deputatlari Toshkent shahar Kengashining 2024-yil 26-dekabrdagi VII-4-024-14-0-K/24 -son qaroriga asosan, shuningdek, Toshkent shahar hokimligining 2024-yil 26-dekabrdagi 02-2342-sonli xatini inobatga olib, 2025-yil uchun Shayxontohur tumani mahalliy byudjetini qabul qilish bo‘yicha Xalq deputatlari Shayxontohur tumani Kengashi

Q A R O R Q I L A D I:

1. O‘zbekiston Respublikasining “2025-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to‘g‘risida”gi Qonuniga (keyingi o‘rinlarda Qonun deb ataladi) va Xalq deputatlari Toshkent shahar Kengashining 2024-yil 26-dekabrdagi “2025-yil uchun Toshkent shahar mahalliy byudjetini tasdiqlash to‘g‘risida”gi VII-4-024-14-0-K/24-son qaroriga (keyingi o‘rinlarda Qaror deb ataladi) muvofiq 2025-yil uchun Shayxontohur tumani mahalliy byudjeti parametrlari ma’lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Mazkur qarorga muvofiq Shayxontohur tumani mahalliy byudjetining 2025-yil uchun daromadlari **149 635 000,0 ming so‘m** va xarajatlari **149 635 000,0 ming so‘mga** ma’lumot uchun qabul qilinganligi hamda Shayxontohur tumani mahalliy byudjetining shaxsiy g‘azna hisobvarag‘ida turgan byudjet mablag‘larining yo‘l qo‘yiladigan eng kam miqdori **548 000,0 ming so‘m** etib belgilanganligi inobatga olinsin.

3. Qonunning 12-moddasi hamda Xalq deputatlari Toshkent shahar Kengashining 2024-yil 26-dekabrdagi VII-4-024-14-0-K/24-son qarorining 3-bandiga asosan:

a) soliqlarning quyidagi turlari tumanlar byudjetlariga to‘liq hajmda o‘tkaziladi:

jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘i;

jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i;

yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan to‘lanadigan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i;

suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq;

noruda qurilish materiallari bo‘yicha yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq;

davlat aktivlarini ijaraga berishdan tushumlar.

b) quyidagilar Toshkent shahrining shahar byudjeti va tumanlar byudjetlari o‘rtasida taqsimlanadi:

aylanmadan olinadigan soliq;

yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq (yirik soliq to‘lovchilar tomonidan to‘lanadigan soliqlar bundan mustasno);

yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i (yirik soliq to‘lovchilar tomonidan to‘lanadigan soliqlar bundan mustasno);

benzinni, dizel yoqilg‘isini va gazni yakuniy iste’molchilarga realizatsiya qilishdagi aksiz solig‘i;

mol-mulkni ijaraga berishdan olinadigan yillik daromad to‘g‘risidagi deklaratsiyaga asosan jismoniy shaxslar tomonidan to‘lanadigan daromad solig‘i teng ulushlarda;

davlat aktivlarini sotishdan mahalliy byudjetlarga tushadigan tushumlar o‘rtasida teng ulushlarda taqsimlanadi.

4. Quyidagilar:

2025-yil uchun Shayxontohur tuman mahalliy byudjeti daromadlarining 2025-yil uchun asosiy prognoz ko‘rsatkichlari 1-ilovaga muvofiq;

2025-yil uchun Shayxontohur tuman mahalliy byudjetidan hududiy byudjet mablag‘larini taqsimlovchilarga ajratiladigan xarajatlarning umumiy cheklangan miqdorlari 2-ilovaga muvofiq;

Shayxontohur tumani mahalliy byudjetiga umumdavlat soliqlari va boshqa soliqsiz tushumlardan ajratmalar me’yorlari 3-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

5. Tuman mahalliy byudjeti zaxira jamg‘armasi hajmi 2025-yil uchun **1 284 455,0 ming so‘m** miqdorida belgilansin.

Bunda, zaxira jamg‘armasi mablag‘larini amaldagi byudjet qonunchiligiga muvofiq, byudjet tizimi byudjetlari shakllantirilayotganda oldindan nazarda tutib bo‘lmaydigan xarajatlarni, shuningdek, ijtimoiy-iqtisodiy beqarorlik yuzaga kelgan vaziyatlarda amalga oshirilishi zarur bo‘lgan tadbirlarni moliyalashtirish uchun yo‘naltirilishi ta’minlansin.

6. Tuman hokimining birinchi oʻrinbosari-tuman Iqtisodiyot va moliya boʻlimi boshligʻi (I.Sayriddinov) tuman Iqtisodiyot va moliya boʻlimi (B.Mirsamatov), tuman Soliq inspeksiyasi (X.Mulladjanov) bilan birgalikda 2025-yil mahalliy byudjeti uchun belgilangan koʻrsatkichlarni oʻz vaqtida va samarali bajarilishini ta’minlash choralarini koʻrsin.

7. Hududiy byudjet mablagʻlarini taqsimlovchilar byudjetdan ajratilgan mablagʻlardan maqsadli va samarali foydalanish, xususan ish haqi va unga tenglashtirilgan toʻlovlar, oziq-ovqat, dori-darmon, kommunal xizmatlar va davlat dasturlari uchun belgilangan xarajatlarni birinchi navbatda toʻliq rejalashtirilishi va oʻz vaqtida toʻlanishi hamda davriy jamlanma moliyaviy hisobotlarni toʻgʻri shakllantirilishi va oʻz vaqtida taqdim etilishini ta’minlasin.

8. Shayxontohur tuman soliq inspeksiyasi (X.Mulladjanov) Oʻzbekiston Respublikasi Soliq kodeksida belgilangan vakolatlardan kelib chiqib:

soliqlarning toʻliq va toʻgʻri hisoblanishini hamda ushbu soliqlarni oʻz vaqtida budjetga undirilishi ustidan soliq nazoratini oʻrnatish;

yer soligʻi, suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq va mol-mulk soliqlari boʻyicha doimiy tahlililar oʻtkazgan holda, soliqlarni toʻliq hisoblanishini ta’minlash hamda ushbu soliq toʻlovlari boʻyicha soliq qarzdorligiga yoʻl qoʻymaslik choralarini koʻrish;

aylanmadan soliq turi boʻyicha soliq toʻlovchilar tomonidan naqd pul aylanmalarining soliq hisobotlarida toʻliq aks ettirilishi ustidan doimiy soliq nazoratini oʻrnatish hamda zarur hollarda kameral soliq nazorati tadbirlarini oʻtkazish;

yer va mol-mulk soligʻining soliq bazasini oshirish, ya’ni xatlov ishlarini samarali va muntazam tashkil etib borish vazifalari yuklatilsin.

9. Shayxontohurtumani hokimligi matbuot xizmati:

- mazkur qaror tegishli tahririyatlar va ommaviy axborot vositalarida yoritilishi tavsiya etilsin hamda tuman hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

10. Ushbu qaror 2025-yil 1-yanvardan e’tiboran kuchga kiradi.

11. Mazkur qaror bajarilishini nazorat qilish Xalq deputatlari Shayxontohur tumani Kengashining Mahalliy byudjet, tadbirkorlikni rivojlantirish va iqtisodiy islohotlar masalalari boʻyicha doimiy komissiyasi raisi (A.Gafurov) hamda Shayxontohur tumani hokimining birinchi oʻrinbosari-tuman Iqtisodiyot va moliya boʻlimi boshligʻi (I.Sayriddinov) zimmalariga yuklatilsin.

Sessiya raisi GAFUROV AZIZ TULKUNOVICH

Xalq deputatlari Shayxontoxur tumani
Kengashining
2024-yil 27-dekabrdagi
III-5-031-14-205-K/24 -son qaroriga
1-ilova

2025-yil uchun Shayxontohur tuman byudjet daromadlari prognozi

ming so‘m

T/r	Ko‘rsatkichlar	Summa
JAMI		**149 635 000**
1	Jismoniy shaxslarga tegishli mol-mulkni ijaraga berishdan oladigan yillik daromadi to‘g‘risidagi deklaratsiyaga asosan to‘laydigan, shuningdek, yakka tartibdagi tadbirkorlar to‘laydigan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	16 343 000
2	Aylanmadan olinadigan soliq	22 985 200
3	Aksiz solig‘i	15 575 000
	Shundan:	
	Benzin, dizel yoqilg‘isi va gazni oxirgi iste’molchilarga realizatsiya qilishda to‘lanadigan aksiz solig‘i	15 575 000
4	Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	8 664 210
5	Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	43 457 000
6	Yuridik shaxslar yer solig‘i	4 443 660
7	Jismoniy shaxslar yer solig‘i	27 398 000
8	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq, (bundan elektr stansiyalari tomonidan to‘lanadigan soliq mustasno)	4 988 000
9	davlat mulkini ijaraga berishdan tushadigan	5 780 930

Xalq deputatlari Shayxontoxur tumani
Kengashining
2024-yil 27-dekabrdagi
III-5-031-14-205-K/24 -son qaroriga
2-ilova

2025-yil uchun Shayxontohur tumanining tuman mahalliy byudjetidan hududiy byudjet mablag'larini taqsimlovchilarga ajratiladigan mablag'larning cheklangan miqdorlari

(ming so'm)

T/r	Hududiy byudjet mablag'lari taqsimlovchilar nomi	Summa
Xarajatlar miqdori, Jami		**149 635 000,0**
1	**Maktabgacha va maktab ta'limi bo'limi**	62 795 678,0
	shundan:	
	"Mening maktabim"	*2 106 560,0*
2	**Madaniyat bo'limi**	7 353 979,0
3	**Yoshlar ishlar agentligining tuman bo'limi**	5 946 190,0
4	**Jismoniy tarbiya va sport sohasi**	4 515 707,0
5	**Kambag'allikni qisqartirish va bandlik bo'limi**	2 005 238,0
6	**Iqtisodiyot va moliya bo'limi saqlash xarajatlari**	1 941 289,0
7	**Hokimiyat**	35 616 736,0
	shundan:	
	Tuman Ijtimoiy ko'nikma markazi	*326 361,0*
	Ozodlikdan mahrum etish jazosini o'tab bo'lgan fuqarolarga "dastlabki ijtimoiy-moddiy yordam berish"	*128 633,0*
	Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi	*17 712 037,0*
	"Mahalla byudjeti" jamg'armasi mablag'lari	*3 556 717,0*
	Zaxira jamg'armasi	*1 284 455,0*
8.	**O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi tuman tashkilotlari**	727 998,0
	shundan:	

	O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Xalq qabulxonalarini saqlash xarajatlari	*145 060,0*
	Axborot-kutubxona markazlari	*582 938,0*
10	**Obodonlashtirish boshqarmasi**	28 732 185,0

Xalq deputatlari Shayxontoxur tumani
Kengashining
2024-yil 27-dekabrdagi
III-5-031-14-205-K/24 -son qaroriga
3-ilova

Shayxontohur tuman byudjetlariga umumdavlat soliqlaridan ajratmalar me’yorlari

foiz hisobida

T/r	Tuman nomi	benzin, dizel yoqilg‘isi va gazni oxirgi iste’molchiga realizatsiya qilishda to‘lanadigan aksiz solig‘i		Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq		Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i		Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq		Aylanmadan soliq
		Tuman byudjetiga		Tuman byudjetiga		Tuman byudjetiga		Tuman byudjetiga		Tuman byudjetiga
		MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB	
1	Shayxontohur tumani	41%	40%	0%	9%	0%	9%	100%	100 %	20%